



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

NUTQIY SISTEMADA MODALLIKNING EMOTIV-EKSPRESSIV VA PARALINGVISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI

Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy sistemada modallik emotiv-ekspressiv vositalar hamda paralingvistik vositalar orqali qanday ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Emotiv-ekspressiv vositalar gapning mazmunini o'zgartirib, gapiruvchining his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, bahosini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: modallik, emotive-ekspressiv vositalar, paralingvistik vositalar, kognitiv yondashuv, pragmatik vositalar.

ВЫРАЖЕНИЕ МОДАЛЬНОСТИ В РЕЧЕВОЙ СИСТЕМЕ С ПОМОЩЬЮ ЭМОТИВНО-ЭКСПРЕССИВНЫХ И ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Хайруллоева Гуласал Файзулло кизи
Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье рассматривается, как модальность выражается в речевой системе посредством эмоционально-экспрессивных и паралингвистических средств. Эмоционально-экспрессивные средства изменяют содержание предложения и указывают на чувства, мысли и оценки говорящего.

Ключевые слова: модальность, эмоционально-экспрессивные средства, паралингвистические средства, когнитивный подход, прагматические средства.

EXPRESSION OF MODALITY IN THE SPEECH SYSTEM THROUGH EMOTIVE- EXPRESSIVE AND PARALINGUISTIC MEANS

Khayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi
Bukhara State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article examines how modality is expressed in the speech system through emotional-expressive and paralinguistic means. Emotional-expressive means modify the content of a sentence and indicate the speaker's feelings, thoughts, and evaluations.

Keywords: modality, emotional-expressive means, paralinguistic means, cognitive approach, pragmatic means.

Modallik — gapning voqelikka munosabati va so'zlovchining nutqqa bo'lgan subyektiv qarashlarini bildiruvchi til kategoriyasidir. U nafaqat grammatik birliklar, balki kommunikativ jarayon va pragmatik niyat orqali ham ifodalanadi. Shu bois modallikni o'rganishda kommunikativ va pragmatik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida modallik quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

1. **Grammatik vositalar:** fe'l mayllari (buyruq, shart, istak), yordamchi fe'llar (*kerak, lozim, mumkin*).

2. **Leksik vositalar:** modal soʻzlar (*albatta, ehtimol, afsuski*), baholovchi birliklar, frazeologizmlar.
3. **Sintaktik vositalar:** soʻroq-buyruq gaplar, shart gaplar, modal konstruksiyalar.
4. **Intonatsion vositalar:** ohang, urgʻu, hissiy ohor.

Bu vositalarning uygʻun qoʻllanishi soʻzlovchining kommunikativ maqsadini ochib beradi. Oʻzbek tilshunosligida modallik dastlab grammatik kategoriya sifatida oʻrganilgan boʻlsa, zamonaviy davrda u kommunikativ-pragmatik doirada tadqiq qilinmoqda. Modallik nutq axtlari, soʻzlovchi intension va matn janrlari bilan bogʻliq holda tahlil qilinadi. Epistemik modallik axborotning ishonchliligini, deontik modallik esa ijtimoiy majburiyatni bildiradi. Matnshunoslikda modallik matnning janri va kommunikativ vazifasiga qarab turlicha namoyon boʻladi [2; 118-b.; 6; 68-b.].

Lisoniy tizimda modallik tilning grammatik, leksik va sintaktik vositalarida mustahkamlangan kategoriya sifatida koʻriladi va u yordamchi feʼllar (*kerak, lozim, shart, mumkin*), modal soʻzlar (*balki, ehtimol, albatta*) hamda gapning intonatsion shakli orqali ifodalanadi. Nutqiy tizimda esa modallik soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalash vositasi boʻlib, kommunikativ vaziyatda subyektiv baho, ishonch darajasi, ehtimollik, majburiyat yoki istak kabi maʼnolarda namoyon boʻladi. Bugungi tilshunoslikda modallikka faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki pragmatik va kognitiv kategoriya sifatida ham qaralmoqda. Semantik-pragmatik yondashuvga koʻra, modallik gap mazmuni bilan kommunikativ maqsadni bogʻlab turadi. U soʻzlovchining subyektiv nuqtayi nazari, bahosi yoki ishonch darajasini bildiradi.

Kognitiv yondashuvda esa modallik inson tafakkuri va bilimni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, **“Ehtimol, u keldi”** jumlasida nafaqat til vositasi, balki soʻzlovchining bilim doirasidagi noaniqlikni ham koʻrsatadi. Diskursiv jihatdan talqin qilinganda modallik vositalari matn va muloqot jarayonida matnning mantiqiy bogʻlanishini, yaxlitligini va uslubiy ohangini belgilaydi.

Modallikning zamonaviy tasnifiga koʻra, **obyektiv modallik** gapning voqelikka munosabatini (reallik – noreallik, mumkinlik – imkonsizlik), **subyektiv modallik** esa soʻzlovchining bahosi va munosabatini (ishonch, gumon, istak, majburiyat) ifodalaydi. Bundan tashqari, **deontik modallik** (zarurat, majburiyat, taqiq maʼnolari; masalan: *borish shart*), **epistemik modallik** (ishonch, taxmin, ehtimollik maʼnolari; masalan: *u kelsa kerak*) va **volitiv modallik** (niyat va istak; masalan: *borishni xohlayman*) kabi turlari ham mavjud. Modallik semantik jihatdan obyektiv va subyektiv shakllarda namoyon boʻladi. Obyektiv modallik voqea-hodisaning real yoki norealligini bildirsa, subyektiv modallik soʻzlovchining hissiy munosabatini koʻrsatadi. Pragmatik jihatdan modallik soʻzlovchi intension, illokutsion kuch va nutq axtlari nazariyasi bilan bogʻliqdir. Oʻzbek tilida modal birliklar nutq axtlarini — buyruq, maslahat, iltimos, istak kabi maʼnolarni ifodalashda faol qoʻllanadi. Epistemik modallik axborotning ishonchliligini bildirsa, deontik modallik majburiyat va ruxsatni ifodalaydi. Kontekst va vaziyat modallik maʼnosini aniqlashda muhim rol oʻynaydi [7; 59-b.].

Kommunikatsiya jarayonida modallik quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabatni belgilash.

Masalan: **Siz albatta buni qilishingiz kerak** — buyruq ohangida qatʼiy majburiyat ifodalaydi; **Iltimos, shu ishni qilib bering** — yumshoq, iltimos shaklidagi modallikni bildiradi.

b) kommunikativ niyatni ifodalash.

- **Xabar berish:** *Bugun yomgʻir yogʻdi.*
- **Taxmin qilish:** *Bugun yomgʻir yogʻsa kerak.*
- **Shubha bildirish:** *Ehtimol, yogʻmas.*
- **Ishontirish:** *Albatta yogʻadi.*

Gapning kommunikativ turi (soʻroq, buyruq, istak, xabar) koʻpincha modal birliklar orqali aniqlanadi. Shunday qilib, modallik nutqning kommunikativ kuchini belgilovchi asosiy vositalardan biridir.

Pragmatika nuqtayi nazaridan esa modallik soʻzlovchining intensiyasi (maqsadi) va illokutsion kuchi (nutq aktidagi roli) bilan bogʻliq boʻlgan kategoriya hisoblanadi.

d) illokutsion kuchni belgilash. Modallik gapning qanday nutq aktiga mansubligini koʻrsatadi:

- **Siz borishingiz kerak** — deontik modallik boʻlib, majburiyatni bildiradi (buyruq akti).
- **Ehtimol, u kelar** — epistemik modallik, taxmin ifodalaydi (xabar akti).
- **Xohlardimki, siz ham kelishingizni** — volitiv modallik (istak akti) [3; 2-b.].

e) kontekstga bogʻliqlik. Oʻzbek tilida modal maʼno koʻpincha kontekst orqali aniqlanadi:

- *U keldi* — oddiy xabar.
- *U keldi-da!* — taʼkid, hayrat, baho.
- *U keldi-ku!* — ishontirish, ogohlantirish.

f) subyektiv baho va munosabat.

Pragmatik jihatdan modallik soʻzlovchining ishonch darajasi, gumoni, roziligi yoki noroziligini bildiradi:

- *Shubhasiz, bu toʻgʻri* — ishonch.
- *Balki bu notoʻgʻridir* — gumon.
- *Afsuski, u kelmadi* — hissiy baho [3; 5-b.].

Oʻzbek tilida kommunikativ-pragmatik modal vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Grammatik vositalar

a) yordamchi feʼllar: *kerak, lozim, shart, mumkin*;

b) feʼl mayllari: istak mayli (*borsaydi*), shart mayli (*borsa*), buyruq mayli (*bor!*).

Leksik vositalar

a) modal soʻzlar: *albatta, ehtimol, balki, shubhasiz, zarur*;

b) baholovchi birliklar: *yaxshi, yomon, afsuski, achinarli*.

Sintaktik vositalar

a) soʻroq gaplar (*U kelarmikan?*);

b) buyruq gaplar (*Darrov buni bajaring!*);

c) modal konstruksiyalar (*Uning kelishi mumkin edi*).

Intonatsion vositalar

Ohang orqali qatʼiylik, shubha, gumon yoki iltimos kuchaytiriladi [4; 2-b.].

Nutqiy sistemada modallik (gapda ifodalangan voqelikni baholash) emotiv-ekspressiv vositalar (soʻzlar, gap boʻlaklari) hamda paralingvistik vositalar (ovoz balandligi, tezligi, ohangi) orqali ifodalanadi. Emotiv-ekspressiv vositalar gapning mazmunini oʻzgartirib, gapiruvchining his-tuygʻulari, fikr-mulohazalari va bahosini koʻrsatadi. Paralingvistik vositalar esa gapiruvchining shaxsiy hissiyotlarini, kayfiyatini bildirishda va gapning taʼsirchanligini oshirishda muhim rol oʻynaydi [7; 96-b.].

Emotiv-ekspressiv vositalar orqali modallik

a) **Lugʻaviy vositalar** — soʻzlarning oʻzi maʼlum modallikni ifodalaydi.

b) **Hissiyot-tuygʻu bildiruvchi soʻzlar** — *afsuski, hayf, qoyil* kabi soʻzlar gap mazmuniga qoʻshimcha hissiy baho qoʻshadi.

c) **Baholash mazmunidagi soʻzlar** — *ajoyib, yomon, zoʻr* kabi sifatlar va ravishlar gapiruvchining voqea-hodisaga boʻlgan munosabatini ifodalaydi.

d) **Sintaktik vositalar** — gap tuzilishi ham modallikni bildiradi.

e) **Oʻzgartirilgan soʻz tartibi** — baʼzi soʻzlarni oʻz oʻrnidan siljitish gapga kuchli taʼsirchanlik yoki alohida eʼtibor bagʻishlaydi.

f) **Soʻzlar takrori** — soʻzlarni takrorlash ularga alohida urgʻu berib, hissiyotni kuchaytiradi.

Paralingvistik vositalar orqali modallik

a) **Ovoz balandligi** — gapiruvchining ovozi baland boʻlsa, u gʻazab, hayajon kabi kuchli

his-tuygʻularni ifodalaydi.

b) **Ovozning ohangi va intonatsiyasi** — ovozning baland-pastligi, uning notekis harakati gapiruvchining xursandchiligini, qaygʻusini, noroziligini yoki boshqa hissiyotlarini koʻrsatadi.

c) **Gapirish tezligi** — tez gapirish hayajonni, sekin gapirish esa jiddiy fikrlarni yoki mulohazalarni ifodalashi mumkin.

d) **Pauza (tanaffus)** — gapdagi pauzalar maʼlum bir soʻz yoki fikrga eʼtibor qaratishga, taʼsirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

1. Emotiv-ekspressiv vositalar

Vosita turi	Ifoda vositalari	Misol gap
Leksik vositalar	<i>voy, nahotki, axir, juda, rosa</i>	<i>Voy, u kelibdi! / Axir, bu imkonsiz-ku!</i>
Soʻz tartibi va takror	takroriy shakllar	<i>U keladi, keladi! / Balki... balki...</i>
Emotiv sintaktik qurilmalar	undov gaplar, taʼkidlash	<i>Qaniydi u kelsa! / Bu mutlaqo mumkin emas!</i>

2. Paralingvistik vositalar

Vosita turi	Tavsifi	Misol
Intonatsiya	Ohang orqali ishonch, gumon, shubha ifodalanadi	<i>U keladi-ku! / U kelarmikan?</i>
Pauza va urgʻu	Pauza gumonni, urgʻu ishonchni kuchaytiradi	<i>Ehtimol... u kelar. / Shubhasiz, bu — haqiqat!</i>
Mimika va imo-ishora	Koʻz qisirlatish, qoʻl silkish, bosh qimirlatish kabi vositalar	shubha, inkor yoki tasdiq bildiradi

3. Emotiv va paralingvistik vositalarning kommunikativ vazifasi

Vazifa	Mazmun
Aniqlik darajasini oshirish	Intonatsiya orqali ishonch yoki gumon kuchaytiriladi
Hissiy taʼsir koʻrsatish	Soʻzlovchi tinglovchini ishontiradi, hayratlantiradi yoki shubhalantiradi
Muloqotni yumshatish yoki kuchaytirish	Ekspressiv soʻzlar, mimika va imo-ishora yordamida amalga oshadi

Modallik nutqiy sistemada nafaqat grammatik, balki emotiv-ekspressiv va paralingvistik vositalar orqali ham ifodalanadi. Bu vositalar soʻzlovchining hissiy holatini, kommunikativ maqsadini va tinglovchiga taʼsir darajasini koʻrsatadi [8; 64-b.]. Demak, modallikni toʻliq tushunish uchun uni multimodal yondashuv asosida oʻrganish zarur. Xulosa qilib aytganda, nutqiy sistemada modallik faqat soʻzlar bilan emas, balki gapiruvchining ovozi, uslubi, gapirish tarzi kabi koʻplab paralingvistik omillar orqali ham ifodalanadi va shu orqali tinglovchiga yanada toʻliqroq maʼno yetkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. — Toshkent, 2000.
- Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Raupova L., Abuzalova M., Yoʻldosheva D. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent, 2021.
- Xayrulloeva G. F. Oʻzbek tilida modallik ifodalashning semantik asoslari // BuxDU ilmiy axboroti. — Buxoro, 2024. — № 10. — B. 112–116.
- Xayrulloeva G. F. Oʻzbek tilida toʻliqsiz feʼllar orqali modal maʼno ifodalanishi // Zamonaviy fan va taʼlim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. — 2024. — B. 143–154.
- Xayrulloeva G. F. Soʻroq belgisining pragmatik ahamiyati // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. — 2-jild, 4-son. — B. 194–199. — URL: <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2820>
- Palmer F. R. Mayl va modalitet. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
- Lyons J. Semantika. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
- Comrie B. Til universallari va lingvistik tipologiya. — Chikago: University of Chicago Press, 1989.